

## **MARKAZIY DAVLAT ARXIVI HUJJATLARIDA XITOY XALQLARIGA OID MA'LUMOTLAR**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-547-551>

**Shosaidov Anvar Soatovich**

Stajor-tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

[anvar.shosaidov1988@gmail.com](mailto:anvar.shosaidov1988@gmail.com)

**Annotatsiya.** Markaziy Osiyo hududida yashab kelayotgan Xitoy xalqlariga oid etnografik ma'lumotlar arxiv hujjatlari misolida yoritilgan. Shuningdek Xitoyda qadimdan yashab kelayotgan xalqlarning Markaziy Osiyo hududlariga kelib o'nashishi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

**Kalit so'zlar.** Таранчи, Дунган, Хитой, Сибо, Манжур, Уйгур

## **СВЕДЕНИЯ О КИТАЙСКИХ НАРОДАХ В ДОКУМЕНТАХ ЦЕНТРАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО АРХИВА**

**Шосаидов Анвар Соатович**

Стажер-исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

[anvar.shosaidov1988@gmail.com](mailto:anvar.shosaidov1988@gmail.com)

**Аннотация.** Этнографические сведения о китайских народах, проживающих на территории Средней Азии, иллюстрируются на примере архивных документов. Имеются также сведения о народах, с древнейших времен живших в Китае, пришедших и расселившихся в Средней Азии.

**Ключевые слова:** Таранчи, Дунгане, Китайцы, Сибо, Маньчжуры, Уйгуры.

## **INFORMATION ABOUT CHINESE PEOPLES IN THE DOCUMENTS OF THE CENTRAL STATE ARCHIVES**

**Shosaidov Anvar Soatovich**

Intern -researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

[anvar.shosaidov1988@gmail.com](mailto:anvar.shosaidov1988@gmail.com)

**Annotation.** Ethnographic information about the Chinese peoples living in the territory of Central Asia is illustrated by the example of archival documents. There is

*also information about peoples who have been living in China since ancient times coming and settling in Central Asia.*

**Key words:** Таранчи, Дунган, Хитой, Сибо, Манжур, Uyg‘ur

1869 йил ёзида Тянь-Шань тоғлари ва унга яқин ҳудудларга барон А.В.Каульбарсъ саёчат уюштиради. Унинг қўлида Каспий орти харитаси бўлади. Аммо ушбу ҳудудларда ўзгаришлар катта бўлган. Каульбарсъ Кулджинский округининг Норин уъездидаги бўлиб шу ерда яшайдиган маҳаллий аҳоли билан танишади. [ЎзРМА И 591-фонд] Унинг маълумотларига кўра:

Миллатлар Номи	Оиласлар Сони	Ўтовлар Сони	Эркаклар Сони	Аёллар Сони	Жами
<b>Ўтрок миллатлар</b>					
Таранчи	9569	-	22826	19428	42304
Дунган	1206	-	2237	2237	4564
Хитой	1867	-	3165	2449	5614
Сибо	2293	-	7873	7567	15840

Ўша пайтда Ляонин провинциясида 69,4 % , Синьцзян-Уйғур автоном районида 19,1 %, Хэйлунцзян провинциясида 5,3 %, Цзилинь 2 % сибо миллати яшаб келган. [[http://ru.wikipedia.org/wiki/Народы\\_Китая](http://ru.wikipedia.org/wiki/Народы_Китая)] Сибо миллати ҳозирда Хитой Халқ Республикасида истиқомат қилиб келади. 16-асрнинг сўнгти чораги – 17- аср бошига келганда Сибо миллати Манжур халқига сиёсий жиҳатдан қарам бўлиб қолади ва 8 байроқ мўғул ва 8 байроқ манжур вилоятига қўшиб олинади. 100 йил ичидаги сибо миллати аҳолиси узоқ йиллар мобайнида истиқомат қилиб келган ҳудуддан бошқа ўлкаларга кўчириб юборилади. Жами 4 бор катта кўчиш амалга оширилади. Биринчи кўчиш Канси ҳукмдорлигининг 31- йилида (1692 йил) амалга оширилади. Натижада Карсин ҳудудидаги Сибо халқи манжур байроғи вилоятига кўчирилади. [佟克力 新疆人民出版社 “锡伯族历史与文化”1989 年 34—36 总 347 页]

XXR ташкил топгандан сўнг бошқа халқлар сингари сибо миллати ҳам миллатлар бирлиги ва тинчлигига йўлида бирлашди. Сибо миллатининг сиёсий ва этник тенглиги расмий жиҳатдан мустаҳкамланди. 1954 йил Синциангнинг аввалги Нингси уезди Сибо Чабучар автоном районига ўзгартирилди. [中华人民共和国成立后，锡伯族进入民族平等、团结互助的新时代，政治上享有了和各族平等的权利。1954年实现了民族区域自治，在新疆原宁西县成立了察布查尔锡伯自治县，进行了一系列社会改革，走上了社会主义道路。]

VII аср Тан сулоласи даврида хитойликлар ғарб томонда яқин жойлашган уйғурлар ва ойхорлар билан жаңг қилишган. Уйғурлар асл кеб чиқиши туркий қавмлардан бўлиб, қадимда Гао-Чан деб номланган ҳозирги Қошғарда яшашган. VIII асрда хитойликлар Гао-Чан давлатини қулатиб жаңгда ғолиб бўлишди. Шундай бўлса ҳам бу ҳалқ батамом йўқолмайди. Тан императорлари уларни ушбу ҳудудларда бироз тинч қўйишган. Захаровнинг маълумотларига қараганда уйғурларнинг маълум қисми Хитойнинг Гансу ва Шанси ҳудудларига қўчирилган. [ЎзРМА И 1-фонд, 20-рўйҳат, 6785-йифма жилд]

Ғарбий дунгандар Амир Темур давридан мусулмончиликда бўлишганлиги ҳақида ҳам маълумот учрайди. Хитойликлар бутун дунган миллатини **хой-хой** деб номлашган. [Гейнс А.К 1869: 66]

Хитойча билиб, дунган миллатида бўлган барча эркак ва аёллари жами сони 30 000 000 кишини ташкил этган (Туркистондаги мусулмонлардан ташқари). Уларнинг кўп қисми Гансу, Шанси, Сичуан, Юннан ва Тянъ-Шанъ эткаларида яшаб келишган. Дунган миллати эркак ва аёллари мусулмон бўлсалар ҳам хитойча кийим кийишиб, шу тилда гапиришган. Ислом ақидаларига қаттиқ итоат қилишган. Дунгандар суннийлар бўлиб Имом Шофий мазҳабида, қолган қисми эса Имом Ҳанафий масҳабида бўлганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. [Ўша ерда...С.69]

Uyg‘urlar. Xitoj Xalq Respublikasidagi Shinjon-Uyg‘ur muxtor tumanining tub joy aholisi bo‘lib, ularning nufuzi 11 mln kishidan iborat. Uyg‘urlar, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, Qozog‘istonda 243 ming, Qirg‘izistonda 50 ming, O‘zbekistonda 20 ming, Turkmanistonda esa 1,2 ming kishi ,istiqomat qiladi. Shuningdek, ular Hindiston, Afg‘oniston va Pokistonda ham yashaydi.

Jahon bo‘yicha jami 12 mlndan to 15 mlngacha uyg‘ur millatiga mansub aholi yashaydi. Ular asosan, uyg‘ur tilida so‘zlashib, islom dinining sunniylik mazhabiga e’tiqod qiladi. Tarixdan ma’lumki, uyg‘urlar turkiy tilli aholi bo‘lib, uzoq davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida Sharqiy Turkistonda alohida etnik jamoa bo‘lib shakllangan. Taniqli tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “uyg‘ur” atamasining etimologiyasi, “Turkiy qavmlar tarixi” va “Shajarayi turk” asarlarida esa ular tarkibidagi urug‘-qabilalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xitojshunos A. Xo‘jaev xitoj yozma manbalariga asoslangan holda qadimda uyg‘urlar 9 ta qabiladan iborat bo‘lib, keyinchalik ular soni 30 taga ko‘payganligini qayd etgan. Shuningdek, olim “uyg‘ur” etnonimining turli talqinlari haqida ham ma’lumotlar bayon qilgan. Yana bir xitojshunos olim N. Bichurinning tadqiqotlarida esa “uyg‘ur” etnonimning transkripsiyasiga doir ma’lumotlar mavjud. “Uyg‘urlarning qisqacha tarixi” asarida qayd qilinishicha, “uyg‘ur” so‘zi turkiy da “uymoq”, “xuyxe” esa xitojchada “birlashmoq” degan ma’nolami bildiradi. “Uyg‘urlar tazkirası” nomli asarda keltirilishicha, “... uyg‘urlar buku, tungro va boyirg‘ular bilan birlashib, turklarga qarshi isyon ko‘tarib, mustaqillikka erishgan, o‘zlarini esa avvaliga “erkin”, so‘ngra “uyg‘ur” deb atagan. Mazkur etnonim

genezisiga doir bildirilgan barcha fikrlar orasida “uyg‘ur” atamasining “birlashgan” yoki “tashkil topgan” degan ma’nolari haqiqatga yaqin bo‘lib, ushbu termin turkiy qabilalar ittifoqiga nisbatan qo‘llanilgan.

Dunganlar. Mazkur xalq o‘zlarini loxuey, laoxueyxuey, xuey yoki chjunyuanjin (dvunyuanjin) deb atab, asosan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, qisman O‘zbekiston hududida yashaydi. Ular dungan tili (Shimoliy Xitoyning shensi va gansu shevalari asosida shakllangan)da so‘zlashadi. Dunganlar Xitoydagagi xuey xalqi bilan etnogenetik jihatdan yaqindir. Ular 1953-yildan boshlab rus grafikasiga asoslangan yozuviga, gansu shevasi asosdagi adabiy tiliga ega va islom dinining hanafiylik mazhabiga e’tiqod qiladi. Dunganlaming kelib chiqishi fanda hali uzilkesil hal etilmagan bo‘lib, bu borada tadqiqotchilar asosan, uchta guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh , tadqiqotchilari ularni arablar va xitoyliklarning aralashuvidan kelib chiqqan deb hisoblasa, ikkinchi guruh olimlar esa ulami uyg‘urlaming xitoy madaniyatini qabul qilgan, ichki Xitoyda yashaydigan qismi deb hisoblaydi. Tadqiqotchilarning uchinchi guruh esa ularni VII-XV asrlar oralig‘ida Shimoliy Xitoy ga kirib kelib, o‘mashib qolgan arab, fors va Markaziy Osiyoning islom diniga e’tiqod qiluvchi turkiy qabilalarining avlodlari deb biladi. Dunganlar enogenezi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning ko‘pchiligi, shu jumladan, xitoyliklar ham uchinchi guruh fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Taniqli xitoyshunos olim Ablat Xo‘jaevning dunganlar etnogenezi bo‘yicha fikrlari esa umuman boshqacha. Uning yozishicha, “Xitoyning asosan, dungan (xuey)lar yashaydigan provinsiyalarida qadimdan xitoy manbalarida “g‘arbiy rivemlar ( g‘rbiy otliqar)” deb ataluvchi ilk turklar, ya’ni bugungi turkiy xalqarning avlodlari yashagan tiek-rivemlar (ilk turklar) o‘z makonlarini tashlab, shimol va g‘rbga ketishga majbur bo‘ladi. O‘z ona yurtlarida qolgan tiek-rivem qavmlarining bir bo‘lagi shimolga ketgan xunlar bilan q o‘shni yashagan va o‘zlarini turkiy deb hsoblagan. Ular Xitoy aholisiga mansub xonlardan tubdan farq qilgan, lekin ming yillar jarayonida xitoy xalqari bilan (keyinchalik o‘zlarini xanszu deb ataganlar bilan) yaqn yashaganliklaridan ularning qiyofasi, tili va ba’zi bir urf-odatlarini o‘zlashtirgan. Shunga qramasdan, ularning asosiy qismi ming yillar jarayonida xan (xitoy)lar bilan qo‘shila olmasligi oqbatida islom dinini qabul etib, dungan (xuey) va shu kabi mayda millatlar shakllanishida eng muhm omillardan biri bo‘lganligi ma’lum”. Dunganlaming alohida etnik guruh bo‘lib shakllanish bosqichlari ko‘p asrlar mobaynida davom etib kelgan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon, asosan, Xitoyning shimoliy va shimoliy-g‘arbiy viloyatlarida ro‘y bergan. Dunganlaming qo‘shnilari hisoblangan xitoyliklar ularni “syao- szya”, ya’ni “kichik oila” deb atagan. Xitoyda qadimdan yashab kelayotgan aholisi esa o‘zlarini “xan sulolasining avlodlari” deb hisoblaydi. “Dungan” nomi Sinszyan viloyatida XVIII asrda paydo bo‘lib, Xitoyning ichki viloyatlaridan ko‘chib kelib, o‘troqlashib qolgan harbiy xizmatchilar, savdogarlar, hunarmandlar va boshqa ijtimoiy tabaqalami ifodalagan (ba’zan “dungan” etimologiyasini “tungan” - hammasi Gansudan, “dvunyuanjin” - “Xitoyda

yashovchilar” yoki turkiycha “turgan” - “turli o‘lkalardan kelib, turib, or“nashib qolgan” deb talqin etiladi). Dunganlar Xitoyda “xueytszu” - “musulmon millati” deb atalib, 1949-yilda alohida millat maqomi berilgan. Ulaming asosiy qismi Xitoyning Gansu, Shensi va Ninsya-Xuey avtonom viloyatlarida yashaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI \ СПИСОК  
ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ \ LIST OF USED LITERATURE  
(REFERENCES):**

1. ЎзР МА И 591-фонд, 1-рўйҳат, 1-ийғма жилд, 1-варак; Туркестанский альбом Т.8 Ч.1: этнографическая. Туземное население в русских владениях Средний Азии //Сос. А.Л. Кун. –Т.: Военно - Типогр. Отд. Туркест. Воен. Округа 1871 - 1872, 391
2. ЎзР МА И 1-фонд, 20-рўйҳат, 6785-ийғма жилд
3. [http://ru.wikipedia.org/wiki/Народы\\_Китая](http://ru.wikipedia.org/wiki/Народы_Китая)
4. Гейнс А.К //Мусулманский население или дунгани Западний Китай// Туркестанский сборник, 1869, Т.5 С.66
5. Doniyorov A. X., Bo‘riyev O. B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi / Darslik. - Toshkent: “NIF MSH”, 2020. 324 bet.
6. Jumayev G. Bug‘ut-so‘g‘d bitigi. TDShU. Toshkent. 2022. 55 b.
7. Хакбердиев К. К. НОВЫЙ ЭТАП РАЗВИТИЯ ШОС: СТАБИЛЬНОСТЬ И ПРОЦВЕТАНИЕ //«О ‘ZBEKISTON-XITOY: TARIXIY-MADANIY. – 2022. – С. 507.